



UO‘T: 635-154.

BELORUS SELEKSIYASIGA MANSUB KARTOSHKKA NAV NAMUNALARINI TURLI SXEMALARDA EKISH VA EKOLOGIK SINOV NATIJALARI

Esonov Sadridin Olimovich 

Kamilov Murodjon Muqumjonovich 

Abdullaev Ismoiljon Ibraximjonovich 

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon ilmiy-tajriba stansiyasi

Annotatsiya. Belarus seleksiyasiga mansub kartoshkaning “Palas”, “Lileya”, “Yuliya”, “Mastak” navlarini turli sxemalarda ekib yetishtirishning hosildorligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijasida barcha navlarda 70x25 sxemada ekilganda yuqori hosildorlik qayd etilgani aniqlandi. Navlar bo‘yicha eng yuqori hosildorlik “Palas” navida, eng past hosildorlik “Lileya” navida kuzatildi.

Kalit so‘zlar: agrotexnika, ekish sxemasi, ekologik sinov, hosildorlik, ildiz tizimi, shoxlanish, tuganak, stalon, nav namunalari.

Аннотация. Изучено влияние различных схем выращивания сортов картофеля белорусской селекции «Палас», «Лилея», «Юлия», «Мастак» на урожайность. В результате исследований установлено, что высокая урожайность отмечена у всех сортов при посеве по схеме 70x25. Самая высокая урожайность по сортам наблюдалась у сорта «Палас», самая низкая - у сорта «Лилея».

Ключевые слова: агротехника, схема посадки, экологическое испытание, урожайность, корневая система, ветвление, клубни, stalon, сортообразцы.

Abstract. The influence of different cultivation schemes for the "Palas," "Lileya," "Yuliya," and "Mastak" potato varieties of Belarusian selection on yield was studied. As a result of the research, it was established that high yields were noted in all varieties when sown according to the 70x25 scheme. The highest yield by variety was observed in the "Palas" variety, and the lowest in the "Lileya" variety.

Keywords: agrotechnology, planting scheme, ecological testing, yield, root system, branching, tubers, stall, variety samples.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

Kartoshka (*Solanum tuberosum L.*) paslyonlar oilasiga mansub muhim oziq-ovqat ekinini hisoblanadi. Kartoshkaning kelib chiqish markazi Janubiy Amerika, xususan Peru va Boliviya hududlari hisoblanadi. Yevropaga kartoshka XVI asrda olib kirilgan va keyinchalik dunyoning barcha mintaqalariga tarqalgan.

Bugungi kunda kartoshka aholi oziq-ovqati va sanoat uchun strategik ahamiyatga ega ekin hisoblanadi. Kartoshka sovuqqa chidamli, namsevar va yorug'sevar o'simlikdir. Uning o'sishi uchun eng maqbul harorat 18–22 °C ni tashkil etadi. 30 °C dan yuqori harorat kartoshka o'sishi va to'prak hosil bo'lishiga salbiy ta'sir qiladi. Kartoshka qisqa kun o'simligi bo'lib, fotoperiodga sezgir hisoblanadi. O'simlikning biologik xususiyatlari hosildorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Kartoshkaning ildiz tizimi mo'ylabsimon va nisbatan yuza joylashgan. Poyasi tik yoki yotib o'suvchi bo'lib, shoxlanish xususiyatiga ega.

Kartoshka ekinida ekish sxemasi hosildorlikni belgilovchi asosiy agrotexnik omillardan biri hisoblanadi. To'g'ri tanlangan ekish sxemasi o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishiga sharoit yaratadi. Qator orasi va uyalar orasidagi masofa o'simliklar o'rtasidagi raqobat darajasini belgilaydi. Juda zich ekish yorug'lik, ozuqa va nam uchun raqobatni kuchaytiradi.

Tadqiqot maqsadi. Belarus seleksiyasiga mansub kartoshkaning “Palas”, “Lileya”, “Yuliya”, “Mastak” navlarini turli sxemalarda ekishning hosildorlikka ta'sirini o'rganish.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

“Sabzavot va poliz ekinlari urug'chiligi” (2023), “Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi” (2023), “Sabzavot yetishtirish” (2023).

Tadqiqot ob'ekti. Belarus seleksiyasiga mansub kartoshkaning “Palas”, “Lileya”, “Yuliya”, “Mastak” navlari.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tajribalar SPE va KITI Andijon ilmiy-tajriba stansiyasida 2025 yilda olib borildi. Tadqiqotlarda kartoshkaning Belarus seleksiyasiga mansub “Palas”, “Lileya”, “Yuliya”, “Mastak” navlarini turli sxemalarda yetishtirishning hosildorligiga ta'siri o'rganildi. Nishlatilgan kartoshka tuganaklari 2025 yil 5 mart kuni 70x20; 70x25 va 70x30 sxemalarda dalaga ekildi.

70x20 sxemada ekilganda “Palas” navida bir uyadagi poyalar soni 6 ta, o'simlik bo'yi 78,4 sm ni, yon shoxlar soni 8,9 donani, “Lileya” navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 64,5 sm ni, yon shoxlar soni 5,0 donani, “Yuliya” navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 65,3 sm ni, yon shoxlar soni 5,2 donani, “Mastak” navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 75,1 sm ni, yon shoxlar soni 7,7 donani tashkil etdi (1-jadval).

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

1-jadval

Kartoshka navlarini turli sxemalar ekib yetishtirishning biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri

№	Nav nomi	Ekish sxemalari	Bitta uyada poyalar soni, dona	O'simlik bo'yi, sm.	Yon shoxlar soni, dona.	Tuganak meva sirtining	
						Rang	Shakli
1	Palas	70x20	6	78,4	8,9	Qizg'ish	Oval-uzunchoq
2		70x25	6	74,1	10,2	Qizg'ish	Oval-uzunchoq
3		70x30	7	71,5	11,7	Qizg'ish	Oval-uzunchoq
4	Lileya	70x20	5	64,5	5,0	Sarg'ish	Ovalsimon
5		70x25	5	60,9	5,7	Sarg'ish	Ovalsimon
6		70x30	6	57,7	6,9	Sarg'ish	Ovalsimon
7	Yuliya	70x20	5	65,3	5,2	Sarg'ish	Ovalsimon-yumaloq
8		70x25	5	61,2	6,0	Sarg'ish	Ovalsimon-yumaloq
9		70x30	5	58,4	7,1	Sarg'ish	Ovalsimon-yumaloq
10	Mastak	70x20	5	75,1	7,7	Sarg'ish-oqish	Oval-uzunchoq
11		70x25	6	72,4	9,1	Sarg'ish-oqish	Oval-uzunchoq
12		70x30	6	68,7	10,4	Sarg'ish-oqish	Oval-uzunchoq

70x25 sxemada ekilganda "Palas" navida bir uyadagi poyalar soni 6 ta, o'simlik bo'yi 74,1 sm ni, yon shoxlar soni 10,2 donani, "Lileya" navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 60,9 sm ni, yon shoxlar soni 5,7 donani, "Yuliya" navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 61,2 sm ni, yon shoxlar soni 6,0 donani, "Mastak" navida bir uyadagi poyalar soni 6 ta, o'simlik bo'yi 72,4 sm ni, yon shoxlar soni 9,1 donani tashkil etdi.

70x30 sxemada ekilganda "Palas" navida bir uyadagi poyalar soni 7 ta, o'simlik bo'yi 71,5 sm ni, yon shoxlar soni 11,7 donani, "Lileya" navida bir uyadagi poyalar soni 6 ta, o'simlik bo'yi 57,7 sm ni, yon shoxlar soni 6,9 donani, "Yuliya" navida bir uyadagi poyalar soni 5 ta, o'simlik bo'yi 58,4 sm ni, yon shoxlar soni 7,1 donani, "Mastak" navida bir uyadagi poyalar soni 6 ta, o'simlik bo'yi 68,7 sm ni, yon shoxlar soni 10,4 donani tashkil etdi.

Olingan natijalarning ko'rsatishicha, kartoshkaning "Palas" navi urug'lik tuganaklari 70x20 sxemada ekilgan 1-variantda tuganak hosildorligi 32,6 s/ga, 70x25 sxemada ekilgan 2-variantda 42,9 s/ga, 70x30 sxemada ekilgan 3-variantda

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

39,1 s/ga ni tashkil etganligi aniqlandi. Kartoshkaning "Lileya" navi urug'lari ekilgan variantlarda tuganak hosildorlik o'rganilganida, urug'lik tuganaklar 70x20 tizimda ekilgan 4-variantdan 30,1 s/ga, 70x25 sxemada ekilgan 5-variantdan 37,0 s/ga, 70x30 sxemada ekilgan 6-variantdan 35,3 s/ga tuganak hosili yetishtirilgani ma'lum bo'ldi (2-jadval).

Kartoshkaning "Yuliya" navi urug'lik tuganaklari 70x20 sxemada ekilgan 7-variant tahlil qilinganida tuganak hosildorlik mos ravishda 30,7 s/ga, 70x25 sxemada ekilgan 8-variantda tuganak hosili 38,1 s/ga, 70x30 sxemada ekilgan 9-variant o'rganilganida esa 36,3 s/ga ni tashkil etganligi kuzatilgan bo'lsa, kartoshkaning "Mastak" navi urug'lari ekilgan variantlarda o'rganilganida, tuganak hosildorlik urug'lik tuganaklar 70x20 sxemada ekilgan 10-variantdan 31,2 s/ga, 70x25 sxemada ekilgan 11-variantdan 40,4 s/ga, 70x30 sxemada ekilgan 12-variantdan 37,6 s/ga tuganak hosili yetishtirilgani qayd etildi.

2-jadval

Kartoshka navlarini turli sxemalar ekib yetishtirishning hosildorlik ko'rsatkichlari

№	Kartoshka navlari	Ekish sxemalari	Qaytariqlar bo'yicha hosildorlik, s/ga					Hosildorlik, s/ga
			I	II	III	IV	V	
1	Palas	70x20	34,3	31,4	34,7	32,0	30,7	32,6
2		70x25	42,8	44,5	41,6	42,6	43,2	42,9
3		70x30	38,0	39,2	38,7	40,0	39,4	39,1
4	Lileya	70x20	30,8	29,7	31,9	28,7	29,5	30,1
5		70x25	37,5	36,2	36,9	38,5	36,1	37,0
6		70x30	33,9	36,4	35,2	34,6	36,3	35,3
7	Yuliya	70x20	31,3	32,5	29,9	30,6	29,1	30,7
8		70x25	38,7	37,0	38,8	36,7	39,5	38,1
9		70x30	36,6	35,3	35,8	37,1	36,5	36,3
10	Mastak	70x20	31,1	32,4	31,9	30,6	30,2	31,2
11		70x25	39,3	40,2	41,8	40,9	39,6	40,4
12		70x30	36,4	38,1	37,0	38,8	37,6	37,6

Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, tadqiqot natijasida barcha navlarda 70x25 sxemada ekilganda yuqori hosildorlik qayd etilgani aniqlandi. Navlar bo'yicha eng yuqori hosildorlik "Palas" navida, eng past hosildorlik "Lileya" navida aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. R.A.Xakimov, A.S.Xakimov, A.A.Toshmuxammedov. "Sabzavot va poliz ekinlari urug'chiligi". Toshkent-2023.

2. B.J.Azimov, B.B.Azimov va boshqalar. "Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi". Toshkent-2023.

3. R.F.Mavlyanova, A.J.Shokirov, B.A.Ibroximov va boshqalar. "Sabzavot yetishtirish". Toshkent-2023.

